

## **KOMPOZITOR TO‘LQIN QURBONOVNING SIMFONIK IJODIDA MUSIQIY USLUBLARNING O‘ZARO MUNOSABATI.**

**Axrorova Munajat Mashraf qizi,**  
O‘zbekiston davlat Konservatoriyasi  
Musiqqa san’ati yo‘nalishi  
II bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek kompozitori To‘lqin Qurbonovning simfonik ijodidagi shakllar, faktura, musiqiy ifoda vositalar ahamiyati, shuningdek musiqiy uslublarning o‘zaro munosabat masalalari yoritib o‘tilgan.(simfoniya №6 misolida).

**Kalit so‘zlar:** Simfoniya, shakl, faktura, uslub, mavzu, makromavzu, sonata, variatsiya, fuga, ostinato, stretta, sintezlashuv, maqom, polifoniya, monodiya, ritm, an’anaviylik, zamonaviylik, meditativlik, intertekstuallik.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat hodimi, professor, kompozitor To‘lqin Umarovich Qurbonov ijodiga nazar tashlar ekanmiz, ijodkorning musiqiy olamda doimiy izlanishi, yuksaklikka intilishi, professional o‘shish bilan o‘ziga xos ijodiy yo‘lini topishga muvaffaq bo‘lganini yaqqol guvohi bo‘lamiz. Kompozitor musiqiy oqimlarning murakkab texnika usullarini egallab, ulardan ijobiy foydalanib, milliy musiqada qo‘llash, ularni payvasta qilish ustida muttasil faoliyat olib bordi. Shu sababli u o‘z ijodidagi simfonik, kamer simfonik va o‘zbek xalq cholg‘ulari uchun yaratgan asarlarida yangidan yangi vositalarni qo‘llagan holda yirik musiqiy asarlar yaratdi. Ular orasida kompozitorning oltinchi simfoniyasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, shakli, turli musiqiy uslublarning o‘zaro munosabatlari, fakturasi, musiqiy ifoda vositalari kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi.

T. Qurbonovning oltinchi simfoniyasi uch qismdan iborat bo‘lib, qismlari bir biri bilan uzviy bog‘langan. Birinchi qism(Andante) lirik, insonning o‘y xayollari, xayotiy qiyinchiliklari, azoblarini ifodalovchi xarakterlarga ega bo‘lib, sonata va ikki melodiko-ritmik mavzuli fugalashgan shakl sintezlashuviga asoslangan.

Ikkinchi qismi (Allegro assai) temp va xarakter jihatdan birinchi qism bilan kontrast bo'lib, variant-ostinatoli shaklda. Simfoniyaning tugash qismi Final (Allegro vivace) sonata shaklida bo'lib, o'zidan oldingi qismlar rivojini sintezlashtirgan, turkumning kul'minatsion qismidir. Final qismi esa fugalashgan, sonatalilik, variatsionlik, ostinatolik kabi shakllarni o'zida sintezlashtirgan. Bu qismda faqatgina asardagi shakllarning munosabatlarini emas, balki turli xildagi fakturalar va butun asar davomida qo'llanilgan shakl yasovchi xususiyatlarni ham kuzatamiz. Finalning yordamchi partiyasi intonatsion tomondan birinchi qism mavzusi bilan bog'langan, shuningdek asosiy partiyaning ritmi ikkinchi qismning ritmo-formulasining varianti asosida shakllantirilgan, ikkinchi qismdagi "Lazgi" raqsidagi kvarta-tersiya intervallaridagi intonatsion xususiyatlar finalda bosh va yordamchi partiya mavzularining kontrapunktlashib kelgan repriza qismida aks ettirilgan. Butun final turli fakturali qatlamlarda namoyish etilgan birinchi qismning leytritmik intonatsiyasiga asoslangan.

Simfoniya qismlar o'rtasidagi aloqalar ladotonal munosabatlarda va faol politonal rivojlovda aks etadi. Birinchi qism boshlang'ich ladi butun asar davomida o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Final faktura nuqtai nazardan o'zidan oldingi qismlarni bevosita davom ettirib, qismlar o'rtasidagi munosabatlarni saqlab qolgan. Birinchi qismning variatsion hamda imitatsion rivojlantirilgan mavzusi finalda yordamchi partiyada aks ettiriladi. Imitatsion rivojlanish tamoyili finalning bosh partiyasida namoyish etilgan. Bosh partiya dastlab geterafon fakturada, keyinchalik esa bir necha bosqichlarda, ya'ni mavzuning imitatsion, hamda strettali kanonik bayonda kiritilgan. Aynan bu yerda qismning kanonik rivojlanish tamoyili kuchayganligini sezamiz.

Simfoniyaning barcha qismlari faktura nuqtai nazaridan umumiy bo'lgan: bir ovozlikdan bosqichma-bosqich imitatsion polifonik rivojlanishda ko'p ovozlikka o'tishi, hamda yana bir ovozli ko'rinishga qaytishi kabi tamoyillarga asoslangan.

Simfoniyaning birinchi qismidanoq ritm katta ahamiyatga ega va butun asarning keyingi rivoji uchun ham muhim tasviriy hamda shakllantiruvchi

xususiyatlarni namoyon qiladi. Ritm asarda mavzuiylikning xarakterini yorqin ko'rsatib bergan. Tembroyritmik yoki fakturali ritmik kontrapunktlar butun simfoniya davomidagi fakturaning ajratib bo'lmaydigan tarkibiy elementidir. Bundan tashqari ostinatoli poliritmik qatlamlar asarda asosiy mazmuniy tuzilishni aks ettirib bergan. Aynan mavzuviy intonatsion, hamda faktura sintezlashuvi finalning reprizasida uchlangan kontrapunktda kiritilgan bosh va yordamchi partiya, hamda ikkinchi qism mavzularining birgalikdagi bayonida kuzatiladi.

Simfoniyaning finali o'zining obrazli tuzilishiga ko'ra ikki turdagi kontrastlashuvchi mavzular namoyishiga asoslangan. Qismda umumiy dramatik xarakterlar sonata shaklida aks etgan. Birinchi qismning lirik, o'ychan xarakterda ekanligiga qaramay, undagi boshlang'ich dramatik tovushlar bayonning keyingi bosqichidagi rivojlanishning kuchayish jarayonidan darak beradi va bir vaqtning o'zida kontrastlikni asta-sekin vujudga keltiradi. Birinchi va ikkinchi qismlar o'rtasidagi munosabatlar bu qarama-qarshilikni yanada kuchaytirib bergan. Aynan bunday qarama-qarshiliklar finalning shaklini(sonata shakli) oldindan belgilab o'tgan.

Simfoniya birinchi qismidagi variant-variatsion va imitatsion rivojlanish tamoyili, shuningdek ikkinchi qismning ostinatoli variatsionliligi finalga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmagan albatta. Imitatsionlik finalning bosh va yordamchi partiyalarning fugalashgan rivojlanishiga olib kelgan. Lekin unda aniq fugalashuvlikni ham bir tomondan payqash qiyin. Finalning bo'limlari orasidagi chegaralar sezilmasligi uni simfoniyaning birinchi qismi kabi bo'limlarni vujudga keltirgan. Har bir mavzu rivojlanish jarayonida kuchli intonatsion variantlilik nafaqat polifonik, balki finalda ham variantli rivojlanish tamoyillaridan keng qo'llanilganligini sezishimiz mumkin.

Finalning boshidanoq uning polifonik rivojlanishi sonata shakli bo'limlarini namoyon qiladi. Bo'limlarining o'zi ham o'z navbatida ichki bo'linishlar va bosqichlardan iborat. Final sonata shaklida bo'lishiga qaramay funkcionallik tomondan bo'limlar chegarasini sezish qiyinligi fazaviylik tushunchasini yuzaga keltiradi.

To‘lqin Qurbonov o‘z musiqasida simfonik tafakkurni bir qator usullar yordamida ifolagan, ularni aynan milliy musiqa maqomlarga xos bo‘lgan xususiyatlar bilan birga aks ettirishga harakat qilgan. Mazkur asarda zamonaviy simfonik uslub maqom musiqasi bilan uzviy bog‘liq. Lirik obrazlilik, maqomlarga hos meditatiflik, “metadramaturgiya: meditatsiya-xarakat” kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin. Simfoniyaning birinchi qismi maqom musiqasidagi kabi lirik xarakterdaligi (sekin tepmdagi qismdan boshlanish) simfoniya va milliy musiqa uyg‘unlashuvini yuzaga keltirgan.

Asarda kompozitor fakturaga milliy tus beradigan yo‘llarga e’tibor qaratgan, xalq cholg‘ulari imitatsiyasining har xil turlarini turli usullarda ifodalagan.

Xulosa sifatida shuni aytib o‘tish joizki, butun turkum tahlilida, asarning birinchi qismini makromavzu sifatida qabul qilish mumkin. Bu qism variant-variatsion, shuningdek imitatsion shaklda rivojlantirilgan. Ikkinchi qism birinchi qism xakteri bilan qarama-qarshi qo‘yilgan bo‘lib, ikkinchi makromavzu sifatida aks etadi va u ostinatoli tamoyilga asoslanilgan. Uchinchi qism bu asar rivoji va reprizasini ifodalaydi. U o‘zidan oldingi qismlarni mavzuiy birlashtiruvchi, sintezlashtiruvchi va shakllantiruvchi bo‘lim vazifasini bajarib kelgan.

Simfoniyaning shakllanish jarayonida polifoniyaning roli juda ahamiyatli bo‘lib, bu XX asr musiqasida polifonik uslublarning yanada keng rivoj topganini tasdiqlaydi. Shu qatori T. Qurbonovning mazkur oltinchi simfoniyasi zamonaviy tuzilish va shaklda ekanligi XX asr an‘analariga xos ekanligidan dalolat beradi.

Kompozitor simfoniya da bir qator shakllardan foydalanib, ularni turli usullarda aks ettirgan. Asarning birinchi qismning lirik xarakterda boshlanishi bu simfoniya janri uchun xos emas, ya’ni o‘z navbatida kompozitor an‘anaviy musiqani aks ettirishga uringan. Asarda polifonik uslub tamoyillarining keng qo‘llanilishi esa, bu kompozitorlik uslubiga xos ekanligidan darak beradi.

Mazkur simfoniya da To‘lqin Qurbonov kompozitorlik mahorati, milliylik ya’ni, an‘anaviy musiqaning bir qator xususiyatlarini, shu bilan birga Yevropa musiqa an‘analariga xos bo‘lgan qonun qoidalarni birlashtirgan. Aynan bu kabi birlashuv asarda intertekstuallik xususida so‘z yuritishga zamin yaratadi.

Intertekstuallik nazariyasi asarning dialogik asosini kuchaytirib, kompozitorning an'anaviy madaniyati va yangi (o'zlashtirilgan) an'analarini monodik uslubda birlashtirish vazifasini aks etdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Asafev B. V. Muzykalnaya forma kak protsess. L., 1971.
2. Jitomirskiy D. V. O texnike kompozitsii v XX veke.- Sov. muzyka, 1978, № 11.
3. Mazel L. A. Stroenie muzykalnykh proizvedeniy. M., 1979.
4. Skrebkov S.S. Uchebnik polifonii. M., 1965.
5. Sposobin I. V. Muzykalnaya forma. M., 1980.
6. Xolopova V. N. Faktura. M., 1979.